BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025. 27.12.FIL.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QAYUMOVA NIGORA MUXTOR KIZI

INGLIZ VA O‘ZBEK SONETLARI BADIIYATI (UILYAM SHEKSPIR VA RAUF PARFI SONETLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 821.111.09-14+821.512.133.09-14

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)

Qayumova Nigora Muxtor kizi
Ingliz va o‘zbek sonetlari badiiyati (Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlari misolida).....3

Каюмова Нигора Мухтор кизи
Поэтика английских и узбекских сонетов (на примере сонетов Уильяма Шекспира и Рауфа Парфи).....23

Kayumova Nigora Mukhtor kizi
Poetics of English and Uzbek Sonnets (The Case of Shakespeare’s and Rauf Parfi’s Sonnets).....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025. 27.12.FIL.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QAYUMOVA NIGORA MUXTOR KIZI

INGLIZ VA O‘ZBEK SONETLARI BADIIYATI (UILYAM SHEKSPIR VA RAUF PARFI SONETLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3502 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sharipova Laylo Frunzeyevna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Eshonqulov Husniddin Pirimovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Qosimova Nafisa Farhodovna filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025. 27.12.FIL.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "21" noyabr soat 1130 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1113 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "7" noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil "7" noyabr dagi 26-21 - raqamli reyestr bayonnomasi).

O.M.Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.R.Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Z.Q.Amonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida sonet janrining tarixiy taraqqiyoti, shakllanish omillari, kompozitsion tuzilishi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari hamda turli milliy adabiyotlarda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, ingliz va o‘zbek she’riyatida sonet janrining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarining mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi, individual uslubi va poetik imkoniyatlarini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, ularda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarining estetik vazifalarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni jihatdan, ikki shoir sonetlarida lirik qahramon ruhiyati, inson va borliq munosabati hamda umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodalanish xususiyatlarini aniqlash sonet poetikasining mazmuniy ko‘lamini teranroq anglashga xizmat qiladi va dolzarbdir.

Dunyo adabiyotshunosligida sonet janrining kompozitsion xususiyatlari, band va qofiya tizimi, poetik obrazlar, badiiy tasvir vositalarining mazmun hamda shakl uyg‘unligini ta’minlashdagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishda ingliz va o‘zbek sonetchiligining shakllanish omillari, janrning milliy-adabiy xususiyatlari, sonetlarda muhabbat, ayriliq, sadoqat, erk va Vatanga muhabbat kabi mavzularning badiiy talqini, obrazlar tizimi hamda ranglar poetikasining estetik-semantik imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu jihatdan, Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida poetik tafakkur, individual ijodiy uslub va badiiy mahoratning namoyon bo‘lishini aniqlash ikki millat shoirlarining badiiy olamini idrok etish hamda sonet janrining badiiy imkoniyatlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyotshunosligida Shekspir va Rauf Parfi sonetlari misolida janr takomili, mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi, ikki shoirning sonet yaratishdagi mahoratini yoritish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga katta e’tibor berilmoqda. Zero, “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak”[1]. Shu jihatdan, ingliz va o‘zbek sonetnavisligini rivojlantirgan ikki yetuk shoirning sonetlarini badiiyatiga ko‘ra chog‘ishtirish, ulardagi obrazlarni, rang poetikasini, uslubni, badiiy tasvir vositalarini qo‘llashdagi mahoratini qiyoslash orqali ikki xalq sonetchiligidagi mazmuniy ko‘lamdorlikni, mavzu va obrazlar ko‘lamining kengayganini, sonet badiiyatining yuksalganini oydinlashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston

[1] O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan “Adiblar xiyoboni”ga tashrifi chog‘ida so‘zlagan nutqidan. https://president.uz/oz/lists/view/3578

Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida sonet janrining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, kompozitsion tuzilishi va poetik xususiyatlari, xususan, Uilyam Shekspir sonetlarining badiiy-estetik tabiati, ichki kompozitsion yaxlitligi, sonetlarda xotira va badiiy idrok munosabati N.Bualo, J.Faynmen, P.Innes, Y.Uan, S.Monte, S.Uels, J.S.Garrison, A.Rosmarin, Z.Akerman va D.Shalkvik kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan[2].

Rus adabiyotshunosligida sonet janrining nazariy asoslari, Shekspir lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetik nutq tuzilishi va janrning estetik imkoniyatlari, sonetlarda umidsizlik konseptining ifodalanishi, shoir ijodida sonetlarning tutgan o‘rni A.Anikst, A.Bragin, E.Lugovskaya, B.Mixaylichenko kabi olimlarning ishlarida o‘rganilgan[3]. Ushbu tadqiqotlar sonet poetikasini, uning janriy belgilari va individual ijodiy talqinini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek adabiyotshunosligida sonet janrining milliy she’riyatda shakllanishi va taraqqiyoti, zamonaviy o‘zbek she’riyatida sonetning badiiy xususiyatlari,

---

[2] Boileau D.N. L’Art poétique. – Paris: Denis Thierry, 1674. – P.112-118; Fineman J. Shakespeare’s Perjured Eye: The Invention of Poetic Subjectivity in the Sonnets. – Berkeley: University of California Press, 1986. – 365 p.; Innes P. Subjectivity in Shakespeare’s Sonnets: Thesis. – Stirling: University of Stirling, 1990. – 485 p.; Wan Y. Time: A Major Thematic Study of Shakespeare’s Sonnets // Proceedings of the 2018 8th International Conference on Management, Education and Information. Atlantis Press, 2018; Monte S. The Secret Architecture of Shakespeare’s Sonnets. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2021; Wells S. Shakespeare’s Sonnets. – Oxford: Oxford University Press, 2004; Garrison J.S. Shakespeare and the Afterlife of Love: A Study of the Sonnets. – Oxford: Oxford University Press, 2023; Rosmarin A. Shakespeare and the Sonnets: Critical Perspectives. Cambridge University Press, 2020; Ackermann Z., Schalkwyk D. The Articulation of Feeling in Shakespeare’s Sonnets // The Review of English Studies. 2023. – Vol. 74, No. 315. – P. 470-484.

[3]Аникст А.А. Лирика Шекспира // Шекспир У. Сонеты / сост. А. Н. Горбунов; предисл. и коммент. А. Аникста; послесл. А.Л.Зорина. – М.: Радуга, 1984. – С.19-35; Брагин А.М. Концепт «разочарование» в сонетах В.Шекспира: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – М., 2013. – 22 с.; Брагин А.М. Концепт «разочарование» в сонетах В.Шекспира: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – М., 2013. – 173 с.; Луговская Е.Ю. Речевая структура сонета (на материале сонетов В.Шекспира): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04. – М., 2005. – 150 с.; Михайличенко Б.С. Проблемы литературоведения: теория литературы: монография. – Самарканд: СамГУ, 2009. – 180 с.

shuningdek, Uilyam Shekspir va Rauf Parfi ijodining poetik jihatlari B.Boyqobilov, N.Shukurov, Ibrohim Haqqul, Chori Avaz, Abdulla Sher, A.Saidov, D.Quronov, I.G‘aniyev, O.Fayzullayeva, Olim Oltinbek kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan[4].

Biroq mazkur izlanishlarda ingliz va o‘zbek sonetchiligining taraqqiyot xususiyatlarini, Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarining mavzu ko‘lami, obrazlar tizimi, individual uslubi, ranglar poetikasi hamda badiiy tasvir vositalarini yagona qiyosiy tahlil doirasida kompleks o‘rganish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Shu jihatdan, mazkur dissertatsiyada ikki shoir sonetlarining badiiy xususiyatlarini qiyosiy-tipologik va poetik tahlil asosida o‘rganish orqali mavjud ilmiy izlanishlarni to‘ldirish nazarda tutiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasining “Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari: adabiy jarayon, qiyosiy adabiyotshunoslik, uslubshunoslik va tilshunoslik masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Uilyam Shekspir hamda Rauf Parfi sonetlarini qiyosan o‘rganish orqali ingliz va o‘zbek sonetchiligi badiiy takomil xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon she’riyatida sonet janrining paydo bo‘lishi va shakllanishini, janrga xos jihatlarni, dunyo sonetchiligining taraqqiyotini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish;

ingliz va o‘zbek sonetchiligining yuzaga kelish omillarini, o‘xshash hamda farqli jihatlarini yoritish;

Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarining mavzu ko‘lamini, obrazlar tizimini, ikki el shoirining sonetnavis sifatidagi mahoratini, uslubini qiyoslash;

Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida ifoda etilgan ranglar poetikasini, qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarini aniqlash orqali badiiyatini chog‘ishtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlari, ayni damda, jahon sonetchiligi namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlari badiiy takomili qiyosi tashkil etadi.

[4] Бойқобилов Б. Сонет мулкига саёҳат // Навоий ватани. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 380-388; Шукуров Н. Сонетлар // Бу олам саҳнада. – Т., 2010. – Б.28; Ҳаққул И. Шекспир машъали // Шекспир В. Сайланма. Биринчи жилд. – Т.: Фан, 2007. – Б.35; Чори Аваз. Изланиш излари // Бахтиёрлик шу эмасми? – Қарши: Насаф, 1992. – Б.30-31; Абдулла Шер. Сонет сирлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2009. – № 43; Саидов А. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Т.: 2020. – Б. 286-412; Қуронов Д. Рауф Парфи сонетлари ҳақида // Филологик тадқиқотлар: тил, адабиёт, таълим. – Термиз, 2023. – № 1. – Б.25-29; Ғаниев И. Рауф Парфи Ўзтурк дунёси. – Т.: Муҳаррир, 2021. – 732 б.; Файзуллаева О. Ҳозирги ўзбек шеъриятида сонет жанрининг бадиий хусусиятлари: филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т., 2011. – 23 б.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, analitik, kontekstual tahlil, tasniflash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek sonetchiligining shakllanish hamda taraqqiyot xususiyatlari aniqlanib, Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida muhabbat, sadoqat, do‘stlik, xiyonat, hayot va o‘lim kabi mushtarak mavzular bilan bir qatorda, Shekspirda vaqt va umr mohiyatini anglash, Rauf Parfida esa Vatan, el, erk va ona mavzularining ustuvorligi asoslangan;

Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida portret, peyzaj va badiiy san’atlarning individual poetik vazifalari aniqlanib, Shekspirda yor qiyofasining tanlangan detallari orqali go‘zallikning o‘ziga xos talqini va peyzajning cheklangan qo‘llanishi, Rauf Parfida esa lirik qahramon va yor obrazlarining ruhiy kechinmalar bilan uyg‘unligi hamda peyzajning hissiy ta’sirchanlikni kuchaytirishdagi vazifasi dalillangan;

Uilyam Shekspir sonetlaridagi go‘zal, yosh do‘st (Fair Youth) obrazining go‘zallik, do‘stlik, muhabbatga sadoqat va vaqtni yengish g‘oyalarini, Qora xonim (Dark Lady) obrazining esa muhabbat, xiyonat va ziddiyatli ruhiy kechinmalarni ifodalashi; Rauf Parfi sonetlarida esa Shekspirdan farqli ravishda milliy o‘zlik, xalq taqdiri va ijtimoiy erksizlik bilan bog‘liq kechinmalarning yetakchilik qilishi aniqlangan;

Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida anafora, oksimoron, tazod, tashxis, talmeh va tashbehning poetik-semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning muhabbat, vaqt, go‘zallik, hijron mavzularini ifodalash, lirik kechinmalarni teranlashtirish hamda badiiy obrazlarning ta’sirchanligini oshirishdagi vazifaviy ustuvorligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Jahon sonetchiligida italyan, ingliz, fransuz, rus va o‘zbek sonetchiligining o‘ziga xos o‘rni mavjudligi, ingliz va o‘zbek sonetlarining yuksak badiiyati, kompozitsion qurilishidagi o‘xshashliklar va qofiya tizimidagi mushtarakliklar, shuningdek, ingliz sonetlarida lirik kechinmalar chuqur ifodalangani holda, o‘zbek sonetlarida Vatan taqdiri va el erki masalalari ham yoritilgani dalillangan.

Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida ishq, do‘stlik, erk, sadoqat mavzulari yangicha ifodalarda yoritilgani, beparvo yor, jafokash oshiq, sodiq va xiyonatkor do‘st obrazlari bilan bir qatorda, ezilgan ayol, erksiz Vatan va el, ona kabi obrazlarning mavjudligi dunyo sonetchiligidagi obrazlar tizimini kengaytirgani aniqlangan;

Uilyam Shekspir va Rauf Parfining ranglar vositasida lirik qahramon va yorning kayfiyati, yoshi hamda holatini, peyzaj orqali ular mansub muhitni, portret ko‘magida esa tashqi qiyofasini gavdalantirish, ayni damda, ichki olamini ham anglatishdagi mahorati qiyosiy tahlillarda asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, analitik, kontekstual

tahlil, tasniflash usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek sonetchiligi badiiyatining yuksalishida, taraqqiyotida, janr takomilida Shekspir va Rauf Parfi sonetlari alohida o‘rin tutgani, yoritilgan nazariy xulosalardan qiyosiy adabiyotshunoslik, she’rshunoslik nazariyasi, yangi o‘zbek she’riyati yo‘nalishida olib borilayotgan ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Adabiyot nazariyasi”, “Adabiy aloqalar”, “Jahon adabiyoti”, “Yangi o‘zbek adabiyoti” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanma, majmualar yaratishda; adabiyotshunoslik lug‘atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek sonetlari badiiyatining Uilyam Shekspir hamda Rauf Parfi sonetlari misolida berilishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek sonetchiligining shakllanish hamda taraqqiyot xususiyatlari aniqlanib, Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida muhabbat, sadoqat, do‘stlik, xiyonat, hayot va o‘lim kabi mushtarak mavzular bilan bir qatorda, Shekspirda vaqt va umr mohiyatini anglash, Rauf Parfida esa Vatan, el, erk va ona mavzularining ustuvorligi bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan “English Access Microscholarship Program” loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 22-maydagi 1540/02-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha ishtirokchilarining ingliz va o‘zbek she’riyatiga, xususan, sonet janrining mavzuviy va badiiy xususiyatlariga oid bilimlari kengaytirilgan; ingliz va o‘zbek sonetlarida umuminsoniy qadriyatlar hamda milliy o‘ziga xoslikning ifodalanishi haqidagi ilmiy ma’lumotlar loyiha mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida portret, peyzaj va badiiy tasvir vositalarining individual poetik vazifalari aniqlanib, Shekspirda yor qiyofasining tanlangan detallari orqali go‘zallikning o‘ziga xos talqini va peyzajning cheklangan qo‘llanishi, Rauf Parfida esa lirik qahramon va yor obrazlarining ruhiy kechinmalar bilan uyg‘unligi hamda peyzajning hissiy ta’sirchanlikni kuchaytirishdagi vazifasi asoslanganligiga doir xulosalardan Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan “Umumta’lim maktablarining 5-6-sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo‘llash metodikasi” (2024-2025-yy.) mavzusidagi olima ayollar innovatsion loyihasini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2026-yil 25-fevraldagi 01-0909/133-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo‘llashga oid metodik materiallar sonetlarning badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi va poetik tasvir vositalari haqidagi ilmiy ma’lumotlar

bilan boyitilgan hamda ularni o‘quvchilarga samarali yetkazish imkoniyatlari kengaytirilgan;

Uilyam Shekspir sonetlaridagi go‘zal, yosh do‘st (Fair Youth) obrazining go‘zallik, do‘stlik, muhabbatga sadoqat va vaqtni yengish g‘oyalarini, Qora xonim (Dark Lady) obrazining esa muhabbat, xiyonat va ziddiyatli ruhiy kechinmalarni ifodalashi; Rauf Parfi sonetlarida esa Shekspirdan farqli ravishda milliy o‘zlik, xalq taqdiri va ijtimoiy erksizlik bilan bog‘liq kechinmalarning yetakchilik qilishiga doir ilmiy natijalardan Buxoro viloyat teleradiokanalining “Assalom, Buxoro”, “Ilm dunyosi”, “Dolzarb mavzu”, “Hayot maktabi”, “Xalq fikri” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 14-maydagi 01-09-101-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta’minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 2 ta respublika, 3 ta xorijiy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek sonetchiligi”** deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. Bobning birinchi fasli *“Dunyo sonetchiligi tadriji”* deb nomlangan bo‘lib, unda dunyo sonetchiligida bu janrning mumtoz sonet ko‘rinishi borligi, bunday sonetlarga janrning italyancha va fransuzcha ko‘rinishi mansubligi; romantik sonet sifatida Shekspir asoslagan sonet qayd etilishi va ingliz soneti deyilishi; zamonaviy sonet deb esa rus sonetchiligi keltirilishi; bu sonet ko‘rinishlarining o‘xshash hamda farqli jihatlari aytib o‘tilgan. Har bir xalq sonetchiligi tarixi yoritilgan.

Sonet o‘n to‘rt misradan iborat, o‘ziga xos band tuzilishi va qofiyalanish tartibiga ega lirik janr bo‘lib, dastlab G‘arb adabiyotida shakllangan. Janrning tarixiy taraqqiyoti davomida uning shakliy va poetik jihatdan turli ko‘rinishlari yuzaga kelgan. Ayrim tasniflarda sonetning klassik, romantik va zamonaviy turlari ajratib ko‘rsatiladi. G‘arb she’riyatida keng taraqqiy etgan sonet keyinchalik boshqa milliy adabiyotlarga ham kirib bordi va XX asr boshlarida o‘zbek lirikasida ham uning dastlabki namunalari yaratila boshlandi.

“Sonet” italyancha “sonetto”, provanscha “sonet”, ya’ni “qo‘shiq” so‘zidan olingan. Janr Nikola Bualoning “She’riy san’at” asarida shunday tavsiflangan:

Shart qo‘ymish, avvalo, qo‘sh katren deya,
Ularni ulasin ikki qofiya.
Ikki terset bilan tugasin Sonet,
Xulosa fikrni tashisin terset[5].

Nikola Bualoning fikricha, Apollon sonetning vaznini, hijosini belgilab bergan, unda shoir so‘zni takror qo‘llamasligi, jo‘n gapni she’r qilib, sonet demasligi kerak. She’riy tarzda yaratilgan, Jamol Kamol mohirlik bilan tarjima qilgan, she’r san’ati haqidagi bu ilmiy asarda qator janrlar bilan birgalikda sonetga ham ta’rif berilar ekan, “chiroyli sonet dostondan a’lo” deyiladi. Mazkur asar orqali Gombo, Menar, Malvil, Pelletye kabi sonetnavislar haqida xabar topish mumkin. Nikola Bualo ularning sonetlarini “beta’sir sonetlar” deb hisoblaydi. Hatto Pelletye sonetlari yozilgan qog‘ozlarni go‘sht o‘rashga loyiq deb biladi. Bu keskin tanqid sonet janri qadrini balandlatadi, albatta. Asar sonetning ikki katren, ikki tersetdan tashkil topganini, ulardagi bog‘liqlik shakliy jihatdan qofiya orqali yuzaga kelishini, sonetning xulosasi tersetda ifodalanishini uqtiradi. Sonetshunoslar sonetning vatani haqida turli taxminlarni ilgari suradilar. Ba’zi tadqiqotchilar sonet janri ilk bor XI-XIII asrlarda ritsarlik lirikasi tarkibida Fransiya janubidagi qishloqlardan biri Provansda paydo bo‘lgan degan taxminni keltirishsa, boshqa birlari sonet yaratilgan maskan Italiya ekanini aytishadi. Yana bir guruh olimlar fikricha, sonet qadimgi Gretsiyada yaratilgan[6]. Adabiyotshunoslikda keng tarqalgan qarashga ko‘ra, sonet XIII asrda Italiyada, aniqrog‘i, Sitsiliya poetik maktabi muhitida shakllangan. Janrning yuzaga kelishi Fridrix II saroyidagi adabiy muhit hamda Sitsiliya maktabining yetakchi vakili Jakomo da Lentini ijodi bilan bog‘lanadi. Shu bois Jakomo da Lentini sonet janrining ilk namoyandasi va ehtimoliy yaratuvchisi sifatida e’tirof etiladi[7]. Dastlabki italyan sonetlari o‘zining vazni, kompozitsiyasi, qofiyalanish tartibi bilan xalq qo‘shiqlariga yaqin bo‘lgan. Keyinchalik shoirlar Gvido Gvinitselli, Gvido Kavalkanti, Chino da Pistoya va Toskana, demokratik shoirlar maktabining vakili Chekko Andjolyeri sonet shaklini “dolce stil nuovo” (“yangi xushta’b uslub”) shakliga o‘zgartirishdi.

[5] Никола Буало. Шеър санъати // Китобда: Жамол Камол. Шеър санъати. Етти жилдлик. IV жилд. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б.387.
[6] https://en.wikipedia.org/wiki/Sonnet?utm_source
[7] Barolini T. Dante and the Lyric Past // The Cambridge Companion to Dante. Ed. Rachel Jacoff. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007.; Kumar A. Introduction // The Complete Poetry of Giacomo da Lentini. – University of Toronto Press, 2018. – P.3-16.

Qat’iy deb hisoblangan sonet yozish qoidalari 1332-yilda Padovaniya shahridan bo‘lgan shoir, adib Antonio da Temponing “Summa artis rithimici vulgaris dictaminis” nomli she’rshunoslik traktatida ifodalangan[8]. Fransuz lirikasida bu janrda Pyer de Ronsard, Klement Maro, Sharl Bodler, Stefan Mallarme, Pol Verlen singari shoirlar sonet yozgan bo‘lsalar, rus lirikasida V.Trediakovskiy, A. Sumarokov, G. Derjavin, A. S.Pushkin, M. Lermontov, A. Fet I.I.Dmitriyev, V.A.Jukovskiy kabi shoirlar bu janr rivojiga hissa qo‘shishgan.

№	Qaysi xalqning she’riyatiga mansubligi	Ilk bandi	Ikkinchi bandi	Uchinchi bandi	Oxirgi bandi
1.	Italyan soneti	1-katren	2-katren	1-terset	2-terset
		abab	dede	fgf	fgf
2.	Fransuz soneti	1-katren	2-katren	1- terset	2- terset
		abba	dede	ffg	hhf
3.	Ingliz sonetida	1-katren	2-katren	3-katren	distix
		abab	dede	fgfg	hh

Dunyo sonetchiligida sonet hajmi bir xil: to‘rt banddan iborat, ammo band tuzilishiga ko‘ra ikki xil kompozitsiyaga ega:

1. To‘rt misrali ikki band va uch misrali ikki band, ya’ni ikki katren, ikki terset.

2. To‘rt misrali uch band va ikki misrali bir band, ya’ni uch katren, bir distix.

I bobning “*Ingliz va o‘zbek sonetchiligining o‘ziga xos jihatlari”* nomli ikkinchi faslida ingliz va o‘zbek sonetchiligining taraqqiyot tamoyillari, badiiyati xususida fikr boradi. Ingliz sonetnavisligi dunyo sonetnavisligida alohida o‘rin tutadi. Sonet ingliz tiliga dastavval Petrarka sonetlarini italyan tilidan Jefri Choser tomonidan tarjima qilinishi orqali kirib kelgan. Ingliz shoiri Tomas Uayt esa Petrarka sonetlarini tarjima qilar ekan, o‘zi ham sonetlar bitdi. Ammo u 4+4+3+3 shaklida sonetlar yaratdi. Bu fransuz sonetchiligi shaklini tanlash edi, albatta. Ingliz she’riyatida sonet janrining yuzaga kelishi va rivoji XVI asrga borib taqaladi. Boshlab berganlar va shakllantirganlar sifatida Edmund Spenser, Tomas Uyat kabi shoirlarni, asoschi sifatida esa Uilyam Shekspir nomini keltirish mumkin. Shekspir sonetlari ushbu janr badiiyatini yuksaklikka olib chiqdi. U sonetchilikka a-b-a-b; d-e-d-e; f-g-f-g; h-h qofiya tartibini, uch katren va bir distixdan iborat kompozitsiyani, lirik qahramon kayfiyati bilan bog‘liq kuchli dramatizm hamda ichki ziddiyatlar, ruhiy o‘zgarishlarning keskinligini olib kirdi. Ingliz sonetnavislari o‘zlaridan oldin yaratilgan sonetlar ta’sirida she’r yozgan bo‘lsalar, ingliz sonetchilik shaklini aynan Shekspir yuzaga keltirdi.

O‘zbek sonetchiligi taraqqiy topishi uchun ikki yo‘l muhim: 1. Dunyo sonetchiligi namunalaridan o‘zbek tiliga tarjima qilinishi. 2. Sonet janrining she’riyatga olib kirilishi. Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi shoirlar o‘zbek lirikasida sonet janriga murojaat qilib, uning o‘n to‘rt misrali shakli va band tuzilishini saqlagan holda, mavzu hamda qofiyalanishiga ijodiy yondashdilar. Janrni

[8] Hollander J. Sonnets: From Dante to the Present. Everyman’s Library, 2001. – P.8-38.

keyinchalik Ramz Bobojon, B.Boyqobilov, Rauf Parfi, Matnazar Abdulhakim, Faxriyor kabi qator ijodkorlar muvaffaqiyatli davom qildirdilar.

№	O‘zbek va ingliz sonetchiligining qiyosi	Ingliz sonetchiligi	O‘zbek sonetchiligi
1.	Taraqqiyot tarixi	XVI–XVII asrga borib taqaladi. Spenser, Shekspir kabi shoirlar ijodi alohida o‘rin tutadi.	XX asrning 30-yillarida boshlanib, 70-yillarida rivojlangan. Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir va Rauf Parfi sonetlari dalil.
2.	Qofiya tizimi	a-b-a-b; d-e-d-e; f-g-f-g; h-h	Sonetchilik maktablarining har biriga xos qofiya tartibi o‘zbek sonetida bor.
3.	Mavzu ko‘lami	Do‘stlik, vaqt, sevgi, o‘lim kabi mavzular yoritilgan.	Vatan, el, ozodlik, muhabbat, hijron mavzusi bor.
4.	Badiiyatiga xoslik	Falsafiy tafakkur hosilasi, dramatizm kuchli.	Sharqona ruh, milliy kolorit kuchli.
5.	Lirik qahramon	Lirik qahramonda ichki ziddiyat kuchli, oshiq, uning sevgilisi, do‘st obrazlari uchraydi.	Ramziy obrazlar, oshiq, yor, ozodlik istagan lirik qahramon obrazi uchraydi.

Dunyo sonetchiligida, jumladan, ingliz va o‘zbek lirikasida yuzaga kelgan sonetlar gulchambari 15 ta sonetni o‘z ichiga oladigan, mustaqil kompozitsiyaga ega, yagona mavzu va poetik g‘oyani talqin etuvchi, dastlabki 14 ta sonet oxirgi magistral sonetga g‘oyaviy-badiiy jihatdan mustahkam birikadigan, shaklan murakkab asardir. O‘zbek adabiyotshunosligida ushbu istiloh “sonetlar guldastasi”, “chambar”, “sonetlar chambari”, “sonetlar gulchambari” tarzida ishlatiladi. O‘zbek sonetchiligida ilk namunasini B.Boyqobilov yaratgan. Uning “Samarqand”, “Oltin to‘y”, Matnazar Abdulhakimning “Mahzun un chekadi nay yoralari”, “Daryo – men, daryo – sen, daryo – u…” sarlavhali sonetlar gulchambari bor. Ammo Uilyam Shekspirda ham, Rauf Parfida ham chambar uchramaydi. Uilyam Shekspirda uchramagani holda Rauf Parfida turkum sonet anchagina. Ko‘rinadiki, ingliz va o‘zbek lirikasida sonet rivojlangan, lekin vazn, band va qofiya tartibiga, hatto mavzu va g‘oya ko‘lamiga ko‘ra o‘xshash hamda farqli jihatlarga ega. Bunday qiyos muhimki, ustoz adabiyotshunos D.Quronov Rauf Parfi sonetlari haqida yozar ekan, “Shoirning ijodiy laboratoriyasi sonet yaratish nuqtayi nazaridan o‘rganilsa, sonetlari janrning jahon adabiyotidagi yaxshi namunalari bilan qiyosiy tadqiq etilsa, u yaratgan sonet sikllarining kompozitsion-tematik o‘ziga xosligi ochib berilsa, adabiyot ilmi uchun ham, she’riyatimiz rivoji uchun ham ko‘p foydali bo‘lur edi”, – deganida haq edi[9].

[9] Куронов Д. Рауф Парфи сонетлари // Филологик тадқиқотлар: тил, адабиёт, таълим. 2023. – №1. – Б.25.

Dissertatsiyaning “**Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetchiligida obraz, mavzu, uslub masalasi**” deb nomlangan II bobi uch fasldan tashkil topgan. *“Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlari mavzu ko‘lami”* deb atalgan birinchi faslida ikki shoir sonetlari orqali inson, jamiyat, muhabbat, umr kabi mavzularning badiiy talqini solishtirilgan. Uilyam Shekspirning sonetlari inson tajribasining murakkab jihatlari sanalgan muhabbat, vaqt, go‘zallik, o‘lim kabi mavzularni aks ettirishi bilan mashhur. Bu mavzular, ko‘pincha, bir-biriga bog‘liq bo‘lib, inson hayotining shaxsiy va umumbashariy jihatlarini aks ettiradi. Sevgi Shekspir sonetlarining yetakchi mavzusi hisoblanadi.

Shall I compare thee to a summer’s day?
Thou art more lovely and more temperate:
Rough winds do shake the darling buds of May,
And summer’s lease hath all too short a date[10].

Shoir sevgilisining go‘zalligini yozning qaynoq kunlariga qiyoslab, muhabbatning abadiyligini ta’kidlaydi. Sevgi madh etilgan yigirma to‘qqizinchi sonetda lirik qahramon ba’zan o‘zini baxtsiz his qilishini, ammo bu holatdan sevgilisi haqidagi o‘ylar qutqarishini, ya’ni bu xayollar unga baxt berishini tasvirlaydi. U o‘zining yetmish uchinchi sonetida ham vaqtning o‘tishini, insonning keksayishini sevgi mavzusi bilan bog‘lab, hayotning qisqaligini, cheklanganligini sevgi orqali abadiylashtirish mumkinligini ifoda etadi. Shoir “Let me not to the marriage of true minds” nomli bir yuz o‘n oltinchi sonetida haqiqiy sevgi, uning mohiyati haqida fikr yuritadi. Chin sevgi qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramay har qanday sinovni yengib o‘tishi, o‘zgarmas va mustahkam bo‘lishini ta’kidlaydi. Bir yuz o‘ttizinchi sonetida esa shoir sevgilisini quyoshga, qorga, atirgulga, ma’budaga va shu kabilarga qiyoslab, idealiga mos bo‘lmasa ham uni ardoqlashini ko‘rsatib beradi. Vaqt mavzusini muhabbat, go‘zallik, o‘lim kabi mavzular bilan bog‘liqlikda aks ettiradi. Shekspir sonetlarida asosiy mavzulardan yana biri go‘zallikdir. Shoir go‘zallikni vaqt bilan, uning o‘zgaruvchan tabiati bilan bog‘liq tarzda aks ettirar ekan, she’riyat go‘zallikni abadiylashtirishi mumkinligini ham ta’kidlaydi. Shoir “When forty winters shall besiege thy brow” nomli sonetida vaqt o‘tishi bilan go‘zallik yo‘qolib borishi, yoshlikning o‘rnini qarilik egallashini ko‘rsatadi. U sonetlarida inson o‘z go‘zalligini avlodlari, ya’ni zurriyodlari orqali saqlab qolishi mumkinligini aytadiki, bu shoir tafakkuridagi o‘ziga xosliklardan biridir.

Muhabbat mavzusi Rauf Parfi sonetlarining ham bosh mavzusi bo‘lib, bu ikki sonetnavis ijodidagi o‘xshash jihat va qay tarzda ifodalashiga ko‘ra ayni shu jihat farqni ham belgilaydi. Shekspir va Rauf Parfi ifodalagan muhabbat kimga va nimaga qaratilgani bilan tafovutlanadi. Rauf Parfi muhabbati Shekspirdan farqli o‘laroq Vatanga, elga, ona tiliga, onaga qaratilgan. Uning sonetlarida sevgi ba’zan quvonch, ba’zan og‘riq, ba’zan hijron bilan zidlikda keltiriladi. “Muhabbat”, “Diloromning ko‘zlari” sonetlari fikrimizga dalildir. Shoir “Hayot ummonida bir-birin bilmay”, “Sho‘rpeshona ishqni tolega yo‘yib” kabi ifodalar orqali sevgi va

[10] https://www.poetryfoundation.org/poems/45087/sonnet-18-shall-i-compare-thee-to-a-summers-day

ajralishning achchiqligini tasvirlaydi. Vatan mavzusi Rauf Parfi sonetlarining asosiy mavzularidan biridir. “Ona Turkiston”[11] sonetida Vatan sevgisi, tarixga bo‘lgan hurmat va lirik qahramonning erksizlik iztiroblari aks ettirilgan. “Ko‘ringiz tarixni, ey turkiy xalqim” satri orqali shoir tarixni anglash va uni qayta tiklash zaruratini ifodalaydi. Rauf Parfi ham Shekspir kabi o‘lim hamda oxirat haqida sonetlar bitdi. “Tavba” sonetida gunohlarini tan olib, tavba qilishni istaydi. She’rda “qodir Allohim”, “do‘zaxim-bog‘im”, “omonat devorman” kabi ifodalar orqali shoir o‘zini gunohkor sifatida his qiladi. U Allohdan o‘zini poklashini va ruhini tozartirishini so‘raydi. Rauf Parfi sonetlaridagi sevgi, tabiat, vaqt, o‘lim kabi mavzular milliylik bilan vobastalikda tasvirlanadi. Bundan tashqari shoir sonetlarida tabiat va jamiyat, falsafiy fikrlar va ilohiy tuyg‘ular, zamonaviy va mumtoz an’analar birlashuvi bor. Ko‘rinadiki, ikki shoir ham o‘tkinchi mavzularda sonet bitmagan. Ular ifodalagan mavzular umuminsoniy hamda umumzamoniy bo‘lib, ingliz va o‘zbek sonetchiligi mavzular ko‘lamini kengaytirdi.

II bobning ikkinchi fasli *“Ikki shoir sonetlari obrazlar tizimi”* deb nomlangan. Bu faslda Uilyam Shekspir va Rauf Parfi sonetlaridagi obrazlar tizimi qiyosiy tahlil qilinib, ularning ingliz va o‘zbek sonetchiligidagi o‘ziga xos jihatlari misollar asosida yoritildi. Uilyam Shekspir sonetlarida ikki obraz alohida o‘rin tutadi: 1. Do‘sti Fair Youth (go‘zal yosh yigit) obrazi. Birdan bir yuz yigirma oltinchigacha bo‘lgan sonetlarida lirik qahramon hisoblangan bu obraz orqali yoshlik, go‘zallik, muhabbat, do‘stlik va vaqt kabi mavzular badiiy talqin etiladi. Shekspir yosh yigit go‘zalligining vaqt o‘tishi bilan zavol topishini ta’kidlab, uni avlod qoldirish orqali davom ettirish g‘oyasini ilgari suradi. 2. Dark Lady (Qora xonim) obrazi. Bu obraz Shekspirning bir yuz yigirma yettinchidan bir yuz ellik to‘rtinchigacha bo‘lgan sonetlarida go‘zal va sirli bir ayol sifatida namoyon bo‘ladi, uning tashqi ko‘rinishi va ichki olami qarama-qarshilikda tasvir etilgan. Qora xonim lirik qahramon his-tuyg‘ulariga qarshi turadigan, uning iztiroblariga sabab bo‘ladigan obraz sifatida tasvirlanadi. Shekspirning sonetlaridan tabiat, vaqt, o‘lim kabi ramziy obrazlar ham keng o‘rin olgan. Bu obrazlar Shekspirning insoniyat va uning muammolariga nisbatan chuqur qarashlarini aks ettiradi. Shekspir sonetlaridagi obrazlar turli xususiyatlariga ko‘ra tasnif qilinishi mumkin. Tabiatiga ko‘ra ijobiy, salbiy, murakkab obraz turlari bor. Shoir yaratgan ijobiy obrazlar ontologik xususiyatiga ko‘ra abadiy sevgini, boqiy go‘zallikni, yorug‘likni; psixologik xususiyatiga ko‘ra umidni, muhabbatni, mehrni; estetik xususiyatiga ko‘ra haqiqiy go‘zallikni; salbiy obrazlar ontologik xususiyatiga ko‘ra o‘limni, vafosizlikni; psixologik xususiyatiga ko‘ra qo‘rquvni, xiyonatni; estetik xususiyatiga ko‘ra sun’iy go‘zallikni; murakkab obrazlar ontologik xususiyatiga ko‘ra vaqtni, psixologik xususiyatiga ko‘ra ruhiy iztirobni; estetik xususiyatiga ko‘ra go‘zallik va o‘tkinchilikni ifodalagan.

[11] Rauf Parfi O‘zturk. Tavba. She’rlar. – T.: Yozuvchi, 2000. – B.6.www.ziyouz.com kutubxonasi (Ushbu manbadan keyingi o‘rinlarda foydalanilganda misoldan keyin manba va sahifasi keltiriladi).

Rauf Parfi she’riyatida poetik obrazlar nihoyatda teran, falsafiy va dramatik bo‘yoqlarga boy tarzda yaratilgan. Uning sonetlari, garchi g‘arbona shaklda bo‘lsada, mazmunida sharqona ruh, milliy og‘riq va tarixiy haqiqatlar mujassam.

Ulug‘ Turkistonni kimlar sevmaydir?!
Fir’avnlar sevmas mening borimni.
Baribir, u xalqning nomidan so‘zlar.
Buyuk muhabbatning qonli nishoni (Rauf Parfi O‘zturk. Tavba. – B.31).

Turkiston Rauf Parfi uchun millatning ruhiy-ma’naviy Vatani, ajdodlar ruhi yashaydigan muqaddas makondir. Bu obraz orqali xalq fojiasi, xo‘rlanishi va iztiroblari ifodalanadi. Turkistonni “sevmas fir’avnlar” esa zo‘ravonlik va mustamlaka timsolidir. Rauf Parfi sonetlarida shoir obrazi ham alohida o‘rin tutib, haqsizlik va yolg‘onga qarshi so‘z bilan kurashuvchi fidoyi, hatto “shahid” sifatida gavdalanadi. Tabiat obrazi (daryo, oftob, shamol, qor, tong, yomg‘ir kabilar) Rauf Parfi ijodida “hissiyotlar manzarasi”, tashqi voqelikdan ichki holatga o‘tish vositasidir. Masalan, “daryo” – ruhiy oqim, “oftob” – umid va qayg‘u, “shamol” – xotira va ozodlik istagi mujassamlashgan obrazlardir. Shoir o‘z dardini aytishda tarixiy shaxslar, jumladan, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat kabi siymolarni keltirib, ularni “milliy ong va fidokorlik” ramziga aylantiradi. Bu obrazlar orqali shoir milliy uyg‘onish, ozodlik va o‘zlikni anglashni targ‘ib qiladi. Shoir ona obrazini yaratar ekan, u orqali millat onasining ichki dunyosini ochib beradi. Uilyam Shekspir sonetlarida yor, oshiq, ag‘yor, do‘st obrazi qo‘llangan bo‘lsa, Rauf Parfi ijodida bu to‘rt obraz bilan birgalikda Vatan, el, ona kabi obrazlar mavjud. Shoir bu obrazlarni yaratish orqali sonetchilikning obrazlar tizimini kengaytirdi. Ikki shoir yaratgan obrazlar ham to‘laqonli obrazlar sifatida e’tirofga munosib ekanini ta’kidlash lozim.

II bobning uchinchi fasli *“Sonetnavis Uilyam Shekspir va Rauf Parfi uslubi qiyosi”* deb nomlanadi. Bu faslda ikki davrning, ikki millatning shoiri hisoblangan Uilyam Shekspir va Rauf Parfining sonet yaratishdagi uslubi chog‘ishtirilgan. Uilyam Shekspir sonetlari o‘zining betakror uslubi, til va tuzilishi bilan ajralib turadi. Shoir “Shall I compare thee to a summer‘s day?” nomli o‘n sakkizinchi sonetida[12] o‘zining murakkab ruhiy holatini tasvirlashda sevgi va go‘zallikni tabiiy narsalar bilan qiyoslab, inson ruhiyatining tiniqligi hamda jozibasini ko‘rsatadi. Rauf Parfi o‘zbek she’riyatiga yangicha uslub bilan kirib kelgan shoir sifatida sonetlarida ham boy va nozik uslubi, tasvirlarining go‘zalligi hamda chuqur ma’nosi bilan ajralib turadi. Shoir sonetlarida turli xil hayotiy, falsafiy va ma’naviy masalalarni yoritadi. Ko‘plab uslubiy vositalar, masalan, metaforalar, ramzlar, parallelizm, ironiyalar va hikmatli fikrlarni qo‘llaydi. Rauf Parfining uslubi ramziylikka boy. Masalan, “Doniyo zindonga qarab turar lol” satri[13] orqali Rauf Parfi o‘lim va tiriklik, abadiyat va yo‘qotish kabi insoniyatning asosiy savollariga ishora qilmoqda. She’rda, “Evoh, jafo undan ming karra ko‘proq” kabi satrlarida shoir insonning o‘limdan oldingi va keyingi og‘riqlari hamda azoblarini tasavvur

[12] https://www.poetryfoundation.org/poems/45087/sonnet-18-shall-i-compare-thee-to-a-summers-day
[13] Rauf Parfi O‘zturk . Tavba. She’rlar. – T.: Yozuvchi, 2000. – B.10. www.ziyouz.com kutubxonasi

qilishini ko‘rsatadi. Rauf Parfi Vatan ozodligi, el erki muammosi orqali jamiyatdagi tutqunlik va erkinlikni, ular o‘rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Shekspir esa o‘z asarida go‘zallik va vaqtning bir-biriga o‘tkazgan ta’sirini ko‘rsatadi, jamiyatning alohida qarashlarini emas, balki tabiiy dunyo qonuniyatlarini ta’kidlaydi.

Uilyam Shekspir va Rauf Parfining sonetnavislikdagi uslubini chog‘ishtirsak:

1.Yashagan davri, sonetlaridagi yorqin jihatlariga ko‘ra. Uilyam Shekspir XVI-XVII asrda ingliz lirikasida, Renessans pallasida, ijtimoiy-siyosiy jihatdan taraqqiy qilgan davrda sonet yaratib, inson ruhiyatiga jiddiy e’tibor qaratgan bo‘lsa, Rauf Parfi XX asrning 70-yillari o‘zbek lirikasida, sho‘ro davrida, keyinchalik istiqlol yillarida sonet bitib, milliy mustaqillik, elning ozodligi orzusini ifodaladi, modernizm ruhida ijod qildi. Ikki shoir ham o‘z davrining ma’naviy-ma’rifiy holatini, ruhiy ehtiyojini aks ettirdi. Uilyam Shekspir shaxsning ma’naviy-ruhiy holatini, Rauf Parfi esa turkiy elning ma’rifiy-ruhiy holatini, Vatanining chin ozodligi masalasini ifodaladi.

2. Sonetlarning shakliy xususiyatlariga ko‘ra. Uilyam Shekspir sonetlari 14 misradan, uch katren va bir distixdan iborat bo‘lib, asosan, a-b-a-b c-d-c-d e-f-e-f h-h tarzida qofiyalanadi. Rauf Parfi esa 14 misrali sonetlarida ikki katren va ikki terset (4+4+3+3), shuningdek, uch katren va bir distix (4+4+4+2) tuzilishlaridan foydalangan, qofiyalanishda esa erkinlikka yo‘l qo‘ygan.

3. Mavzusiga ko‘ra. Uilyam Shekspir sevgi, go‘zallik, vaqt, o‘lim, abadiylik, o‘tkinchilik mavzusini, Rauf Parfi muhabbat, Vatan, ozodlik, el, ona, do‘stlik singari mavzularni yoritdi. Muhabbat va inson ruhiyati – har ikkala shoirda markaziy mavzu. Rauf Parfi an’anaviy mavzular ko‘lamini kengaytirib, sonetchilikka yangi mavzular olib kirgani bilan Uilyam Shekspirdan uslubiy jihatdan farqlanadi.

4. Obrazlar tizimi, ulardagi ramziylikka ko‘ra. Uilyam Shekspir sonetlarida yor, go‘zallik, vaqt, gul, quyosh kabi obrazlar, Rauf Parfi sonetlarida esa Vatan, el, erk, ona, yor, do‘st, yomg‘ir, dunyo singari obrazlarning ramziy talqini har ikki shoir uslubining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Ikki sonetnavis uslubini yuzaga keltiruvchi jihatlardagi o‘xshashliklar: 1. Sonet janrida ijod qilgan. 2. Kompozitsiyasida bir xillik: 4+4+4+2 shaklida yaratilgan sonet ikki shoirda ham bor. 3. Ikki shoirda ham muhabbat, hijron, vafosizlik, do‘stlik, umr mavzusi yoritilgan. 4. Uilyam Shekspir ham, Rauf Parfi ham inson, turli narsalar obrazini yaratdi. 5. Ikki shoirda ham badiiy san’atlar mahorat bilan qo‘llangan, so‘z qo‘llashda mohirlik baland. Ikki sonetnavis uslubini yuzaga keltiruvchi jihatlardagi tafovutlar: 1. Rauf Parfi sonetlarida 4+4+3+3 shakli ustuvor, Uilyam Shekspir ijodida bu shakl uchramaydi. 2. Rauf Parfi sonetlarida Vatan, erk, tutqunlik, el, ona mavzusi yoritilganki, Uilyam Shekspir bu mavzularni sonetlarida ifodalamagan, sonetning o‘z mavzu doirasi bor va qat’iy deb hisoblagan. 3. Ikki shoir ijod qilgan til imkoniyatlari, she’riy tizim xususiyatlari alohida-alohidaki, bu jihatdan shoirlar usluban tafovutlangan. 4. Ikki ijodkorning tafakkur tarzida, ifoda usulida farqlar mavjud. Asosiysi, ikki shoirning ham uslubi

to‘liq shakllangan, ularning uslubi boshqa ijodkorlar uslubi shakllanishida poydevor bo‘la oladi.

